

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI YOZMA NUTQ XATOLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Absaatova Yulduz Qahramon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili

va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli muloqot, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar doirasidagi yozma nutqda imloviy va grammatik xatolarning ko‘payib borish holati lingvistik tahlil qilinadi. Til me’yorlariga rioya qilinmaslikning sabab va oqibatlari, yozma muloqotda savodxonlikning pasayishiga olib kelayotgan omillar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning tilga ta’siri asosli dalillar bilan ochib beriladi.

Abstract: This article provides a linguistic analysis of the increasing prevalence of spelling and grammatical errors in written speech in digital communication, especially in social networks. The causes and consequences of noncompliance with language norms, factors leading to a decline in literacy in written communication, as well as the impact of modern technologies on language are revealed with substantiated evidence.

Keywords: digital communication, social media, spelling errors, language standards, written literacy, linguistic analysis.

Kalit so‘zlar: raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlar, imloviy xatolar, til me’yorlari, yozma savodxonlik, lingvistik tahlil.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida insonlar orasidagi muloqot shakli tubdan o‘zgardi. Jumladan, yozma muloqotning ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi keng tarqaldi. Telegram, Facebook, Instagram, Tik-Tok va X (Twitter) kabi platformalarda millionlab foydalanuvchilar har kuni matnlar almashmoqda. Ammo bu jarayonda adabiy til me’yorlariga amal qilmaslik, imloviy xatolar va savodsizlik holatlari ortmoqda. So‘nggi yillarda raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar kundalik yozma muloqotning asosiy maydoniga aylangan. Bu jarayon tilning zamonaviy muhitda qanday

o‘zgaryotganini o‘rganish zaruratiniz yuzaga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilayotgan yozma nutq ko‘rinishlari ko‘plab lingvistik muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Til me’yorlariga rioya qilmaslik, imlo va grammatik xatolar, uslubiy noaniqliklar bu maydonning asosiy xususiyatlariga aylangan. Bunday holatlar nafaqat individual yozuvchilarning savodxonligi, balki umuman til madaniyati darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu hodisalar tilni o‘rganish va o‘qitishda ham muammolar tug‘dirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida so‘zlarning qisqartirilgan shakllari, talaffuzga asoslangan yozuvlar va ingilizcha aralashmalardan keng foydalaniлади. Bu esa yozma nutqning normativlik darajasini pasaytiradi. Lingvistik nuqtai nazardan qaralganda, bu holat tilning rasmiy va norasmiy uslublari o‘rtasidagi chegaraning susayganini bildiradi. Shu boisdan raqamli kommunikatsiya muhitida til me’yorlariga munosabatni chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan yozma nutq xatolari lingvistik jihatdan o‘rganiladi. Bunday leksek, grammatik, orfografik va uslubiy xatolarning turlari, sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu xatolarning foydalanuvchi yoshi, savod darajasi va texnologik omillar bilan

bog‘liqligi ham o‘rganiladi. Ushbu tahlil til madaniyatini shakllantirish va uni targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Zero, til inson tafakkurining asosiy ifodachisi bo‘lib, uning har qanday shakldagi buzulishi madaniy qadriyatlarimizga putur yetkazadi. Tilshunoslik fanining zamonaviy vazifalaridan biri sifatida bu kabi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash zarur.

Tadqiqot va metodik tavsiyalar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham raqamli savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlardagi til me’yorlarini o‘rganishga e’tibor ortmoqda. Tilshunos olimlardan D. Jo‘raqulova, G. Karimova, M. Tojiyev va A. Madrahimovlar ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati, jumladan, imloviy va grammatik me’yorlarga e’tibor qaratgan. Xusan, D. Jo‘raqulova o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me’yorlarining buzilishi, asosan yoshlar orasida

keng tarqalayotganini ta'kidlagan. Shuningdek, G. Karimovaning “Zamonaviy O‘zbek tili” asarida raqamli muloqotga oid til birliklarining o‘zgarishi tahlil qilingan.

Tilshunos olma To‘xtayeya o‘z tadqiqotlarida raqamli muloqotda til me’yorlariga rioya qilinmasligi yozma nutq savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. S.G‘ulomova ijtimoiy tarmoqlardagi qisqartmalar va inglizcha aralash

so‘zlarning ko‘payishi milliy tilning sofligiga tahdid solayotganini ilmiy maqolalarida ko‘rsatgan. Rossiyalik olim N.D. Golev internet tilining (setevoy yazvk) o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, uni yangi kommunikativ uslub deb atagan. Z.M. Karimo- va raqamli yozishmalarni o‘rganib, unda tilshunoslik uchun yangi analiz obekti “Internet-nutq” shakllanayotganini e’tirof etgan. Ingiliz tadqiqotchisi David Crystal “Internet linguistics” konsepsiyasini ilgari surib, internetda til o‘zgarishining qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilgan.

A. Madvaliyeva ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar tilida tez-tez uchraydigan leksek buzulishlar haqida maqola yozib, bularni ijtimoiy lingvistik muammo deb atagan. Q.Yusupova raqamli muloqotdagagi imlo xatolari sabablari sifatida e’tiborsizlik, savodsizlik va mobil yozuv qurilmalari imkoniyatlarini ko‘rsatgan. Sh.Tursunov o‘z tadqiqotida raqamli muloqot tilining evolutsiyasini bayon etib, unda nutq soddalashuvi va normativlikning pasayishini qayd etgan. F.K. Mamatqulov internetdagagi yozma muloqotda nutq uslubiyati va kontekst muhimligini ta’kidlab, ularni tahlil qilish zarurligini ko‘rsatgan. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozma nutq xatolarini tahlil qilish orqali olimlar til madaniyatini oshirish, yozma savodxonlikni rivojlantirish va raqamli til siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy asoslar yaratgan.

Ushbu mavzuni o‘qitishda quyidagi metodik tavsiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. O‘quvchilarga raqamli muloqot madaniyatini o‘rgatish- ijtimoiy tar- moqlarda yozish paytida ham rasmiy va adabiy til me’yorlariga rioya qilish kerakligi muntazam tushuntirilsin.

2. Imlo va uslubiy xatolarni tahli qilish mashqlarini joriy etish-real ijtimoiy tarmoq postlari asosida tahli ishlari olib borilsin.

3. Interaktiv dars uslublaridan foydalanish - til xatolarini topish, tog‘rilash va muhokama qilishga asoslangan o‘yinlar , viktorinalar tashkil etilsin.

4. Mobil va kompyuter texnologoyilardan savodli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish- avtomatik tuzatish funksiyalariga ortiqcha ishonchdan saqlanish o‘rgatilsin.

5. “Tog‘ri yoz, savodli bo‘l!” mavzusida kampaniyalar tashkil qilish-sinf va maktab miqyosida yozma nutq madaniyatini ommalashtirish ishlari olib borilsin.

6. Yozma muloqotda etika qoidalarini tushuntirish- tarmoqda hurmat, e’tibor, aniq va adabiy ifoda zarurligi muhokama qilinsin.

7. Adabiy tilda yozilgan namunaviy postlar tayyorlash va tahli qilish- o‘quvchilar o‘rtasida adabiy tildan foydalanishga rag‘bat uyg‘otilsin.

8. Lingvistik savodxonlik bo‘yicha mini-treninglar o‘tkazish-ayniqsa, qisqartmalar, emoji va aralash tilli yozuvlarga nisbatan tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

9. Ijtimoiy tarmoqlarda adabiy tilni targ‘ib qiluvchi sahifalar bilan ish- lash- foydali kontentlar tavsiya etilsin va ulardan sinfda foydalanilsin.

10. Shaxsiy yozishmalarda til me’yorlariga amal qilishni nazorat qilish- darsdan tashqari vaqtarda ham to‘g‘ri yozishga odatlantirish bo‘yicha uy vazifalari va baholash tizimi ishlab chiqilsin.

Munozara

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik va qisqa ifoda usuli til me’yorlariga putur yetkazmoqda. Ko‘pchilik foydalanuvchilar nutqda fonetik qisqartmalar, emotikonlar, ingliz tilidagi qisqartmalar, til aralashmalarini qo‘llamoqda. Bu holat yozma tilning oddiyashuviga olib kelmoqda. Masalan: “qlaman”, “kegandim”, “nma qvot- ti” , “xa endi” kabi ifodalar grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lsa-da, keng ishlatilmoqda. Bu holat o‘zbek tilining yozma standartlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tilshunoslikda bunday holatni aksilstandartlar (anti-standard) deb atash mumkin. Xususan, yosh avlod orasida o‘zbek tili grammatikasi, leksikasi va uslubiga zid yozma uslub shakllanmoqda. Bunday holatga qarshi turish uchun zamonaviy pedagogik usullardan, masalan, ijtimoiy tarmoqlarni o‘quv jarayoniga moslashtirish orqali foydalanish zarur.

Ijtimoiy tarmoqlarda yozma nutqning keng qo'llanilishi raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish bilan birga, til me'yorlariga nisbatan e'tiborsizlikni ham kuchaytirmoqda. Yozuvda qisqartmalar, fonetik yozuv, ingilizcha so'zlarning aralashuvi tilimizga begona unsurlar kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli muloqotda grammatik va orfografik xatolar sonining ortishi adabiy tildan chekinish holatlarini ko'rsatadi. Bu holat o'z navbatida yoshlarda savodxonlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiylik muhutida adabiy til me'yorlariga amal qilish ikkinchi darajali bo'lib kelmoqda.

Aksariyat foydalanuvchilar matnning mazmuniga emas, tez yozib yuborishga urg'u beradilar. Bu esa tilda yuzaki yondashuv, e'tiborsizlik va sust grammatik nazoratga sabab bo'lmoqda. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar adabiy tilni targ'ib qilish, savodxonlikni oshirish vositasi sifatida ham samarali ishlatilishi mumkin. Masala, til me'yorlariga asoslangan sahifalar, til o'rgatuvchi botlar va bloglar til madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa raqamli savodxonlik bilan birga til madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli raqamli makonda til normalariga amal qilish ma'suliyatini har bir foydalanuvchi zimmasiga yuklanadi. Raqamli kommunikatsiya zamonida tilni asrash va to'g'ri ishlatish nafaqat tilshunoslarning, balki jamiyatning umumiy vazifasidir.

Xulosa: Ijtimoiy tarmoqlarda imloviy xatolarning keng tarqalishi til me'yorlariga bo'lgan munosabatni o'zgartirmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar hamkorligida savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar zarur. Yozma nutjni to'g'ri shakllantirish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va ularni targ'ib etish bugungi kun tilshunoslarning dolzarb masalalaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlarda mana shu kabi xatolarni oldini olishimiz sof o'zbek tilinining me'yorlariga amal qilgan holatda sof holatda saqlab qolishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva M. O'zbek tilida nutq etiketi.- Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
2. Ahmadjonova D. Raqamli savodxonlik va til muammolari// Filologiya ilmi, 2022.
3. Bobojonov B. O'zbek tili bo'yicha uslubiy tavsiyalar.- Toshkent: NMIU, 2020.
4. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.til.va.uz, www.gramota.ru.
5. Jo'raqulova D. Ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyati.- Toshkent: TDPU, 2021.

6. Karimova G. Zamonaviy O‘zbek tili.- Toshkent: Fan, 2020.
7. Mamatqulova N. Lingvistik norma va zamonaviy muloqot.- Qarshi: QDU, 2022.
8. Nazarova N. Internet tili va adabiy til me’yorlari// Yosh tilshunos maqolalari, 2023.
9. Qurbonov Sh. Nutq madaniyati asoslari.- Toshkent: NMIU, 2018.
10. Sodiqov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent: Fan, 2002.
11. Tojiyev M. O‘zbek adabiy tili nazariyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
12. Tursunov N. O‘zbek tili nazariyasi asoslari.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
13. Xudoyberganov S. O‘zbek tili stilistikasi.- Toshent: O‘qituvchi, 2016
14. Zohidov H. Ijtimoiy til normalari// Til va adabiyot jurnali, 2020.